

PARALINGUISTIC FACTORS OF MEDIA COMMUNICATION

Nargizaxon To'xtasinova Abdurashid qizi

(Mediamuloqotning paralingvistik omillari)

(ADPI magistranti)

Abstract: In this article, linguistic and paralinguistic tools participating in the process of dialogue and mass communication, preliminary concepts of non-linguistic units, linguists who studied them, the use, types, and characteristics of non-verbal tools, as well as their own in the organization of media communication It is about rni. In the period of information-exchange through Internet messengers, it will be discussed about images and graphic forms, stickers, which help to reflect the inner experiences of a person in written speech. As one of the achievements of the article, the analysis of the questionnaire conducted on the method of use of non-verbal units used in all forms of messengers is presented.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot va ommaviy kommunikatsiya jarayonida ishtirok etuvchi lingvistik hamda paralingvistik vositalar, nolisoniy birliklarga doir dastlabki tushunchalar, ularni o'rgangan tilshunos olimlar, noverbal vositalarning qo'llanilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mediamuloqotni tashkil etishdagi o'rni xususida so'z boradi. Internet messenjerlari orqali axborot-almashinuv davrida insonning ichki kechinmalarini yozma nutqda aks ettirib berishga ko'maklashuvchi tasvir va grafik shakllar, stikerlar haqida to'xtalib o'tiladi. Maqolaning yutuqlaridan biri sifatida messenjerlarning barcha ko'rinishlarida foydalaniladigan nolisoniy birliklarning qo'llanilish usuli xususida o'tkazilgan so'rovnama tahlillari ham keltirilgan.

Key words: Media communication, verbal and non-verbal tools, characterizations, qualifiers, separators, phonation, kinesthetic, graphic paralinguistic tools, stickers, smiley, emoji.

Kalit so'zlar: Mediamuloqot, verbal va noverbal vositalar, xarakterizatorlar, kvalifikatorlar, ayiruvchilar, fonatsion, kinestetik, grafik paralingvistik vositalar, stiker, samylik, emoji.

Muloqot – ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi lisoniy yoki nolisoniy, ya'ni noverbal vositalar, imo-ishoralar va shu kabi lingvistik birliklar o'rnida qo'llanuvchi, uning ma'nosini tashishga xizmat qiluvchi paralingvistik vositalar yordamida axborot almashish hodisasi. Kishilar o'zaro muloqot jarayonida bevosita lingvistik yoki paralingvistik vositalardan foydalanadi. Muloqotning diolog, polilog va kishilarning ichki "men"i bilan suhbati asosida yuzaga keluvchi monologlar bevosita til va nutq unsurlarining qo'llanilishi bilan paydo bo'ladi. Bunda lingvistik birliklar, xususan, tovushlar, so'zlar, gaplar, so'z-gaplar axborot almashinuv davrida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda "monolog" tushunchasi biroz e'tibor talab qilishi mumkin. Kishi o'z-o'zi bilan tovushlarni og'iz bo'shlig'idan chiqarib yoki

ong ostida ichki muloqotni amalga oshirishi mumkin, garchi ikkinchi holatda lisoniy birliklar og'iz bo'shilg'idan tashqariga chiqmasa-da, inson tafakkurida kechayotgan fikr va mulohazalarni hosil qilayotgan lingvistik birliklar "lenta"si harakatlanmoqda. Muloqot jarayonida mana shunday lingvistik vositalar tashiyotgan axborotni yanada to'ldirish va boyitish, tinglovchi tafakkuriga tez va oson singdirish, yetkazilayotgan ma'lumotga nisbatan adresatda ijobiy yoki salbiy bahoni keltirib chiqarishga ko'maklashishda paralingvistik vositalarning o'rni katta.

Nolisoniy, ya'ni, paralingvistik birliklardan ham foydalanish va ularni lingvistik tadqiqot doirasiga kiritish g'oyalari Praga strukturalizm maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan.⁴⁶ V.N.Yartsevaning lingvistik entsiklopedik lug'atiga muvofiq paralingvistika nutqiy vositalar bilan birga, ma'noviy axborot uzatuvchi noverbal (nonutqiy) vositalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir.⁴⁷ "Paralingvistika" lotin tilidan olingan bo'lib, "tilga yondosh", "til bilan birga qo'llanuvchi" degan ma'noni ifodalaydi.⁴⁸

Paralingvistik vositalarga oid tushunchalar dastlab 1644-yili Angliyada D.Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan . Uning ilmiy nazariyasi asosida 1650-1670-yillar oralig'ida I. Shlezinger, L. Namir, R.Berdvistel, E. Klim, U. Stokoyeva, U. Belludji kabi izlanuvchilar va tadqiqotchilarining paralingvistik vositalarga oid ilmiy ishlari dunyoga kelgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa jahon tilshunosligida nutqda verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalarni turli aspektlarda o'rganishga e'tibor kuchaygan. Jumladan, F. Poyatos, G. Treyger, D.Shifrin, I.Yildirim, D.Eryilmaz, Sh.Ruxi, G.Kolshanskiy, T.Nikolayeva, A.Reformatskiy, G.Kreydin, T.Vlasova, A.Plaxotnikov, E.Borisova, R.Yakobson, A.Nurmonov, Sh.Iskandarov, A.Sobirov, M.Saidxonovlar lingvistikaga oid; N.Gunduz, F.Serdjant, D.Abduaizizovalar ijtimoiy lingvistikaga oid; Sh.Safarov pragmalingvistikaga oid; I. Gorelov psixolingvistika fanlari bilan bog'liq holda tadqiqot ishlarini olib borgan.⁴⁹

Paralingvistikaning o'rganish obyekti masalasida mutaxassislar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud. Ularning bir guruhi kommunikatsyaning barcha noverbal vositalarini paralingvistika doirasiga kiritadilar. Ikkinchi guruhdagilar esa faqat nutqni kuzatib boradigan har qanday so'zsiz kommunikatsiya vositalarini paralingvistika obyekti deb hisoblaydilar. Quyidagi hodisalar nutqni to'ldiruvchi vositalar deb qaraladi: xarakterizatorlar (kulgi, yig'i, esnashlarning turlariga ko'ra xalqaro farqlari), kvalifikatorlar (talaffuz tezligining turlari, asosiy tonning balandligi va boshqalar), ayiruvchilar (hm, uf-uf

⁴⁶ Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.

⁴⁷ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва 1990.

³ Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.

⁴ Mirzayeva D.I., Xolmatova Z.A. Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati// O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2022.

kabi til hodisasi bo'Imagan tovush kombinatsiyalari) hamda imo-ishoralar, mimikalar va yozuvdagi turli yordamchi grafik ishoralar kiritiladi.

Yana bir guruh tadqiqotchilar informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni verbal bo'Imagan vositalar doirasiga kiritib, ularni uch guruhga ajratadilar: 1) tabiiy nutqqa yondosh noverbal vositalar; 2) nutq ifodasi o'rnila qo'llaniladigan noverbal vositalar; 3) verbal vositalar bilan birga ishlatalib, aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Biz muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha supersegment vositalar va imo-ishora hamda mimikalarni paralingvistika doirasiga kiritish tarafomiz.⁵⁰

Zamonaviy tilshunoslikda paralingvistik vositalarning uch turi belgilangan: fonatsion, kinestetik va grafik. Fonatsion paralingvistik vositalarga *tovush tembri, tezligi, baland-pastligi, pauzalar o'rnini to'ldiruvchi tovushlar* va nutqni to'ldiruvchi boshqa *melodik hodisalar*, talaffuzdagi dialektik, idialektik va ijtimoiy o'ziga xosliklar kiradi. Kinestetik *komponentlarga imo-ishora, qo'l harakatlari, jest, nutq davomidagi pozitsiya yoki jimlik* va boshqalar kiradi. Grafik komponentga esa nutqning matn ko'rinishida, so'z, tushuncha, atama, ibora kabi matn elementlariga urg'u berishga yordam beruvchi *grafik shakllar* va boshqalar kiradi.

Paralingvistik vositalar nutqda qo'shimcha ma'no kasb etibgina qolmay, balki so'zlovchi, uning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakter xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi manba deb ham qaraladi.⁵¹ Ma'murjon Saidxonov "Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalaniishi" nomli nomzodlik ishida noverbal vositalarning kommunikativ va somatik xususiyatlariga ko'ra ularni fonatsion noverbal vositalar va kinetik noverbal vositalar kabi turlarga ajratadi. Fonatsion noverbal vositalar so'zlovchining o'z fikriga yoki suhabatdoshi fikriga xush yoki noxush kayfiyatda bo'lishi, o'z kayfiyatidan xursand yoki nochor ahvolda ekanligi fikr ifodalashda so'zlarni qanday talaffuz etishida, ovozning ohangidan ma'lum bo'ladi. Kinetik noverbal vositalarga nutqiy kommunikatsiya bilan aloqador bo'lgan aloqa-aratashuvida kishining ma'lum organlari harakati yordamida turli axborot beruvchi vositalar kiradi.⁵²

Noverbal vositalarning og'zaki nutqda qo'llanilish o'rni ham turlicha bo'lishi mumkin:

1. Adresantning lisoniy axborotiga adresatning noverbal vositalardan foydalangan holda javobi tarzida:

- *Kuni kecha tashkil etilgan yosh shoirlar tanlovida ishtirok etdingmi? Akobir qo'lsoatini bilagida aylantirgancha Sarvarga yuzlandi. Yigit bosh irg'adi.* (Gazetadan)

2. Adresantning nolisoniy murojaatiga adresatning lingvistik vositalar orqali javobi tarzida:

Habiba devor ortida ketmon chopayotgan singlisiga qosh qoqdi.

⁵⁰ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012.

⁵¹ Islomjonova X.I, Annazarova T. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga oid lingvopragmatik tahlil// XXI acp: фан ва таълим масалалари, 2018.

⁵² Saidxonov M. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 1993.

– Zo'r, o'dag'ayladi Hadicha. Qisqagina, ammo shu birgina so'zda qora mehnatning barcha zahmatlari yashirinib yotganini ilg'ash qiyin emasdi. (Gazetadan)

3. Adresantning nolisoniy axborotiga adresatning ham nolisoniy javobi tarzida:

Ochlik mashaqqati dashtda qolgan ikki jonning umidini tobora yemirib borar edi. Ayol ko'zlarini katta ochgan holda ilinj bilan yoriga boqdi. Qahramon kipriklarini mahkam yumib qo'ydi. (Gazetadan)

A.Nurmonov noverbal vositalarning nutqiy muloqotdagi ishtiroki yuzasidan quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...1) bunday elementlar bevosita kommunikatsiya kanalining funksionallashishiga oid bo'lib, qarshilik qancha katta bo'lsa, paralingvistik vositalar ishtiroki shuncha ko'p bo'ladi. Bu qarshilikning o'zi ikki xil: ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, kommunikatsiya ochiqlikda yuz berib, suhbatdoshlarning masofasi uzoq bo'lsa yoki masofa yaqin bo'lib, kuchli shovqin suhbatga xalaqt bersa, qo'shimcha noverbal vositalarga — imo-ishora va mimikalarga ehtiyoj kuchayadi. Ichki sabablari esa so'zlovchi va tinglovchining subektiv holatlari bilan bog'liqdir. Xususan, adresat yaxshi eshitmasligi mumkin; 2) imo-ishoralarning qo'llanilishi nutq uslublari bilan ham bog'liqdir. Tantanali nutq uslubida imo-ishoralarning nutqni kuzatib borishi nutq ta'sirchanligini ta'minlaydi. Nutq jarayonida verbal va noverbal vositalarning bir-biriga o'rinci va izchil bog'lanishi notiqning yuksak mahorat belgisi hisoblanadi; 3) adresant adresat bilan bo'lgan fikrlarini yonidagi sheriklariga sezdirmaslik uchun kinetik vositalardan foydalanish zarurati tug'iladi".⁵³

Muloqot jarayonida paralingvistik vositalar axborot beruvchining ma'lumotlarini mazmunan to'ldiradi, aniqlik kiritadi, emotsiyal ta'sir kuchini oshiradi. So'zlovchi kommunikatsiya jarayonida uzatilayotgan fikrning ta'sirchanligini oshirish, tinglovchida aniq va lo'nda xulosani vujudga keltirish uchun noverbal vositalardan foydalanadi.

Og'zaki muloqot jarayonida inson tana a'zolari orqali, ya'ni bosh, qo'l, yelka, gavda harakatlari, ayniqsa, yuz mimikalari, qosh qoqish, ko'z qisish, lab burish kabi nolisoniy axborot uzatishlar adresant va adresat tomonidan bayon etilayotgan fikr mazmunini yanada olib berish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. "Nutqning ta'sirchan bo'lishi uchun aniq va ravshan talaffuz, to'g'ri to'xtamlar...shuningdek, nutq sur'ati, ovoz kuchi, tinglovchilar bilan izchil aloqa bog'lay olish, qo'l harakati va shu kabi nolisoniy vositalarga ham alohida ahamiyat berish talab qilinadi".⁵⁴

Nutq jarayonida fonatsion noverbal vositalarning, xususan, tovush tembri, kuchi, baland yoki pastligi ham juda muhimdir. Masofaviy muloqotda ohangning vaziyatiga qarab so'zlovchining his-tuyg'ulari va kayfiyatini bilib olish mumkin. Shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xarakterga ega bo'lib, milliy xususiyat kasb etishi mumkin. Chunki u jamoa tomonidan ma'lum bir ma'noni ifodalash uchun qabul qilingan imo-ishora simvolidir. Boshqa bir jamoada esa mazkur ishora yo hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi

⁵³ Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980.

⁵⁴ Арипова А. Нутқ мөхиятини ташкил этувчи муҳим восита//Scientific progress journal. Volume 1, Issue 6.

yoki boshqa ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, xayr ma'nosini ifodalash uchun ruslar kaftini o'zidan orqaga qilib, vertikal holatda takror-takror silkitsa, italyan kaftini o'ziga qaratib, vertikal holatda silkitadi. Yoki inglez mashina to'xtatish uchun bosh barmog'ini tikka, qo'lini musht qilsa, rus va o'zbeklarda bu kinetik belgi yaxshi degan ma'noni beradi.⁵⁵

So'zlovchi ham, tinglovchi ham muloqot jarayonida ishtirot etar ekan, nutqiy uzatishlar va uni eshitish vaqtida ikki tomonda ham paralingvistik vositalar, imo-ishoralar, mimikalar ishtirot etishi tabiiy. Albatta, har bir millat mentalitetidan kelib chiqqan holda noverbal vositalar nutq jarayoniga olib kiriladi. Bizning hayotimizda shunday noverbal vositalar "qolip"i shakllanib qolganki, ularsiz muloqot jarayonini tashkil etish ham, tasavvur etish ham mumkin emas. Masalan, salomlashish uchun qo'lini ko'ksiga qo'yib biroz ta'zim qilish, alik uchun boshni xiyol egish, qo'l siltash yoki silkitish, boshni vertikal yoki gorizontal harakatlantirish, qosh qoqish va chimirish, ko'z qisish yoxud kipriklarni mahkam yumib qo'yish, lablarni turli harakatlarga keltirish yoki tishlash singari o'zbekona paralingvistik "qolip"lar shular jumlasidandir.

Media olamida ham paralingvistik vositalar juda faol qo'llaniladi. Masalan, televide niye orqali borayotgan jonli muloqot davomida noverbal vositalarning shaxslar, xususan, jurnalistlar faoliyatida ham kuzatishimiz mumkin. Mavjud yangilik va axborotlarni o'qib eshittirishdan so'ng nutqning yakuni sifatida ko'zni pastga yoki yonboshga qaratish, suhabatdoshining fikri tasdig'i o'laroq bosh silkitish, yangi video yoki lavhalarga navbat ma'nosida qo'l kaftining ochilishi kabi noverbal vositalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda internet messenjerlari orqali axborot almashinayotganda ifodalanayotgan fikr uchun xulosa, savol uchun javob, tugallanmagan fikrning davomi sifatida turli xil stikerlardan foydalanilmoqda. O'zbek tilining tashqi imkoniyatlar asosida boyib borishi natijasida inglez va rus tillaridan "smaylik", "stiker", "emoji" singari bir qator yangi terminlar kirib keldi. Bular insonning ichki kechinmalarini yozma nutqda turli xil rasmi belgilar va grafiklar bilan aks ettirib beruvchi nolisoniy vositalar guruhlarini anglatadi. Bunday belgilar maktab darsliklarida "hisbelgi" tarzida talqin etilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan so'rovnomalarda tilimizga yangi o'zlashgan "smaylik", "stiker" terminlarining o'zbek tilidagi muqobil varianti sifatida "hisbelgi" ma'qul deb topilgan. Negaki internet messenjerlarida foydalanayotgan stikerlar bevosita inson histuyg'ularining shakliy ko'rinishi, deb qaralmoqda. Ammo bunday xulosaga kelish bir necha muhokamalarga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, "hisbelgi" "smaylik, stiker, emoji" terminlarining o'zbek tilidagi aynan muqobili emas. O'zbek leksikasining boyib borish qonuniyatlariga ko'ra, chetdan so'z o'zlashtirilayotganda uni qabul qiluvchi til vakillari tomonidan termin nomi o'zgartirilmagan holda qabul qilinishi lozim. Tilimizga bu kabi terminlar kirib keldi, xalqimiz ushbu yangi leksemalari shunday qabul qildi va bir necha yillar davomida ulardan foydalanib bordi. Leksema sifatida inson onggiga singgib bo'lgan terminni "o'zbekchalishtirish", ya'ni "hisbelgi" nomi bilan atash to'g'ri bo'lmaydi.

⁵⁵ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012.

*Stikerlarga inson hissiyotini yozma nutqda ifodalash uchun ko'maklashuvchi shakllar, deya izoh berishimiz mumkin, biroq ayni shu so'z o'rnida o'zbekcha variantini qo'llash nutqiy kamchilikka olib keladi. Bu kabi bir qator o'zbek terminologiyasidagi o'zgartirish va kamchiliklarni boshimizdan kechirganmiz. Masalan, aeroport so'zi o'rnida *qo'nalg'a*, tayyoragoh, bandargoh terminlari ishlatila boshlandi, institut so'zi *oliygoh*, ilmgoh, bilimgoh so'zlari bilan almashtirildi, jurnal so'zi o'rnida *oynoma*, majalla, jarida, oybitik so'zlarini ishlatish tavsiya etildi va sh.k. Chetpul (valyuta), pultopar (biznes), hujjatasrov (arxiv), nusxakash (notarius), naqliyat (transport), malakasinov (attestatsiya) singari yangi yasamalar sun'iyligi, termin yasash me'yorlarigi javob bermasligi bilan ajralib turar edi. Bunday shoshqaloqlik oqibatida o'zbek terminologiyasida noilmiy terminlar paydo bo'ldi, terminlar tizimida sinonimiyaning kuchayishi yuz berdi.⁵⁶ Radio o'rnida *ovoznigor*, telefon o'rnida *durovoz*, avtobus o'rnida *ko'pkursi*, samolyot o'rnida *tayyora* so'zlarini qo'llash tavsiya etildi, biroq bu kutilgan natijani bermadi. Chunki xalq tili va tafakkuriga singgib bo'lgan va keng iste'molda qo'llanuvchi leksemalarni yangi nom bilan atash har doim ham samara bermaydi.*

Internet messenjerlari orqali yozishmalar olib borilayotganda adresatga berayotgan axborotiga nisbatan o'zida hosil bo'layotgan his-tuyg'ular, xususan, xursandchilik, xafagarchilik, norozilik, xafa, yig'i, shikoyat, mammuniyatni ifodalash uchun shakliy belgilardan foydalanadi. Ular turli stikerlar yoki tinish belgilaridan hosil qilingan grafik vositalardan iborat bo'lishi mumkin. Bu kabi stiker, smayliklarning virtual dunyoga kirib kelish tarixiga to'xtalib o'tsak.

Stikerlar birinchi marta Koreyada ishlab chiqilgan *Line* mobil xabar almashish ilovasi tomonidan ommalashgan. Naver ilovanı Yaponiya bozorini hisobga olgan holda ishlab chiqdi, chunki *KakaoTalk* allaqachon Janubiy Koreyada dominant mobil xabar almashish xizmati edi. Stikerlarning hamma joyda targalgan emoji tizimining anime uslubidagi san'at asarlari bilan uyg'unligi va ulardan yaponcha matnda uzunroq xabarlarni yozish o'rnini bosuvchi sifatida ishlatilishi ushbu xususiyatning yapon auditoriyasida qiziqishiga yordam berdi. Linening ustunligi oshgani sayin, Line stikerlari to'plamida tasvirlangan maskot qahramonlari ham tovar sifatida mashhur bo'ldi. 2013-yilda stikerlar Osiyo bozorlaridan tashqariga chiqa boshladi: *Path* 2013-yil mart oyida yangi shaxsiy xabar almashish tizimining bir qismi sifatida stikerlarni qo'shdi, keyin esa aprel oyida Facebookning asosiy va Facebook Messenger mobil ilovalari paydo bo'ldi. Iyul oyida stiker funksiyasi Facebook veb-interfeysiaga kengaytirildi, Kick Messenger ham stikerlarni qo'shdi. Stikerlarga bag'ishlangan startap kompaniyalari ham paydo bo'ldi va ularni reklama kompaniyalari doirasida brendlar nomidan ishlab chiqarishga yordam berdi. 2013-yil noyabriga kelib, mobil xabar almashish foydalanuvchilari o'rtaida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, so'ralganlarning 40 foizi har kuni stikerlardan foydalanishadi, eng ko'p kundalik foydalanish

⁵⁶ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.

indoneziyaliklar (46 %), Xitoy (43 %), Janubiy Koreya (38 %) va AQSh (35 %)ga to'g'ri keladi. Stikerlarni muntazam ravishda ishlatganlarning 20 foizi kamida bir marta mobil xabar almashish ilovalarida stiker yoki emoji uchun pul to'lagan. 2015-stikerlar Telegramda qo'llanilish uchun kiritildi. 2019-yil iyul oyida Telegram uchinchi tomon stiker paketlarini qo'llab-quvvatlaydigan yangi .tgs formatidan foydalangan holda animatsion stikerlarni taqdim etdi. Bir yil o'tib, 2020-yil iyul oyida WhatsApp bir nechta rasmiy paketlarga ega animatsion stikerlarni joriy qildi. 2021-yil iyun oyida Discord premium foydalanuvchilarga animatsion stikerlardan foydalanish imkoniyatini qo'shdi.⁵⁷

Har yili 19-sentabr kuni oddiygina nishonlanmaydi. Chunki ushbu kun yuz ifodamizni elektron ifodalovchi belgilar, ya'ni smayliklarning tug'ilgan kuni. Birinchi bor 1982-yil 19-sentabrdagi professor Mellona Skott Falman birinchi marta uch belgidan iborat bo'lgan smaylikni foydalanish uchun taklif etdi. Ushbu smaylik ikki nuqta, kichkina chiziqcha va yopiq qavsdan iborat edi. Bu smaylik tabassum qilish holatini belgilab berar va ushbu smaylik qisqa vaqt ichida ommalashdi. Proffesor mahalliy e'londlarni, masalan, kunlik anjumanlarni e'lon qilishda ham smayliklardan foydalanar va universitet xodimlari bilan bo'lgan munosabatlarda asosiy qo'llanma hisoblanar edi. Ushbu g'oya elektron lug'atga jiddiy to'ldirish bo'ldi. Smaylik so'zi (ing. smile – "tabassum qilish" yoki "baxtli yuz") ma'nosini bildiradi. Odatda smaylik ko'rinishi sariq rangdagi aylana va ushbu aylananing ichida ikkita nuqtacha bo'lib, bu belgi ko'zni bildiradi. Hozirgi kunda smayliklar hayotimizda katta o'rin egalladi. Chunki har bir fikr ifodamizni o'tirgan joyimizda narigi tarafdag'i, ya'ni suhbatlashayotgan insonimizga bir birimizni ko'rmay turib ham yuz ifodamizni ushbu maxsus belgilar orqali bildirishimiz mumkin.⁵⁸

Internet messenjerlari yoki yozishmalar olib borishning shu kabi boshqa ko'rinishlarida dastlabki bosqichda stikerlar o'rnidagi turli shakllar birikmasidan hosil bo'lgan grafik vositalardan foydalanilgan. Masalan:

- :-) ushbu belgi kulgi uchun;
- :- (ushbu belgi xafalik ma'nosida;
- ; -) ushbu belgi ko'z qismoq ishorasi uchun qo'llaniladi.

Internet muloqoti tez sur'atlar bilan rivojlanib, "smaylik", "stiker", "emoji" kabi paralingvistik vositalarning turli shakllari paydo bo'ldi. Bir necha messenjer foydalanuvchilaridan stikerlardan yozma muloqotda nima maqsadda foydalanishlari yuzasidan so'rovlari olib borildi.

⁵⁷ <https://uz.wikipedia.org>

⁵⁸ <http://taqvim.uz>

Ma'lumot
In God we trust!

)biron ishni noor'in qilib qoyganda
yoki kimnidir jig'iga tegish un
gapirganda
). Xursand bb, o'pib qoygim keganda
). Sezib qolgan sirlarimga
Kimnidir sevib qoganda
Anchagina kotta oshqovoqlik
qilganda
.hech kimga aytma manosida
bilmay gapirib qoyganda
biron mavzuda o'ylanganimda
Xursand bolganda
Ajab qibman digande
buyam shu
yengil kulgu
hafa
g'ashim keganda, yoqmaganda
menda u
savolga javob izlash
qattiq hafa
becharani yoqvoganda
hayrat
uyqi shekili ishlatmaganman
xato qilganimda, yoki ular xato
qilganda
uyalmoq
bilmasdan aytib qoyish

16:40

Ma'lumot
Sabrning oxiri - jannat

8 fevral

bilib turib bilmaslikka olish
sevgi izhor
ataylab qilingan hazil
qovun tushurish
jinnini yoqish
sir saqlash
yengil kulgi
ikkilanish
samimiylilik
yurakdan kulish
erkalanish
uzoq kulish
xafa
nazariga ilmaslik
olifta lutf
o'ylash
yig'i
xo'rlik
hayron qoliish
uyqusirash
adashish
uyat
noo'rin so'zlash

tahrirlangan 11:25

Ma'lumot
Mo'jizam onam

Vayy ajab bo'pti degan manoda
Yuregimdan quvonganimda
Xayrlashuv oldidan bo'pti yana
gaplashamiz degan manoda
Boshim aylanib qoldi balkim
sevgidan balkim biror bir gapdan bazan
gunohsiz odamni ifodalashda ham
Ustdan kulib hazil qilganda
Jimm
Voyy essiz xato manosida
Biror bir savolga javob qidirganimda
o'ylanganimda
Shodlikni ifodalaganimda achom
qipqolaman degan ma'noda
Ajab bo'pti deb kulganda

Ko'zdan yosh chiqqudek hursand
bo'lganda
Mayuslik xafalik
Hh deb mensimaslik
Vapshe zo'r original ma'nosida
Savolni bee'tibor qoldirsra yoki biror
bir narsani eslash o'ylash ma'nosida
Yigi' xafagarchilik
Rahm ma'nosida rahmni keltirish
ma'nosida
ol qolish havratlanish

Ma'lumot
Davlating shu sening umringni tilab otangning y

bopladim
Nim tabassum mehr bilan
Sal uzoqroq insonga xazil qilganda
Begunohluk
Yaqin do'stlarga xazil qilganda
Tshshsh

O'ylanish
Samimiylilik
O'ta ketgan xazil qilganda yaqin
insoniga
O'zini begunoh ekanligini bildirish

hafa
Suzilish
Cho'tki
Qidirish
Yig'lash
Iltimos, mo'Itirash
Hayronlik
esnash
Qovun tushirib qo'ygands
Uyalish, anchagina uyalish
Bilmay gapirib qo'yish

(Telegram ijtimoiy tarmog'idan) Stikerlarning kishilar muloqot jarayonida qo'llanilish o'rnini ijtimoiy jihatdan ham, gender jihatdan ham tahlil qilsa bo'ladi. Ijtimoiy jihatiga ahamiyat beradigan bo'lsak, bir ijtimoiy guruh vakillari ikkinchi bir ijtimoiy guruh vakillari bilan muloqot davrida o'z doirasida qo'llagan stikerlardan foydalanmaydi. Masalan, shaxslarning yoshiga, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi va mansabiga qarab stikerlarning qo'llanilish o'rni ham farq qiladi.

Bu kabi stikerlarni gender jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Internet tarmoqlaridagi yozishmalar, ma'lum vogeliklarga bildirilayotgan mulohaza va izohlarni kuzatish mobaynida shu narsa ma'lum bo'ladiki, yozma nutqda erkaklarga nisbatan ayollar turli shakliy vositalardan keng foydalanadi. Ayollarning yozma nutqiga qaraganda erkaklarning olib borayotgan yozishmalarida stikerlar kam qo'llaniladi. Bunga sabab ayollar erkaklardan ko'ra tez hissiyotga beriladi, erkaklar o'z his-tuyg'ularini berkitishga, ayollar esa hissiy kechinmalarini oson yuzaga chiqarishga moyilroq bo'ladi. Qiyoq uchun ikki jins vakillarining tabrik uchun yuborilgan nomalariga ahamiyat qaratamiz:

(Telegram ijtimoiy tarmog'idan)

Jumlaning o'zi orqali ifodalanayotgan fikr axborot tashiydi, jumla boshi yoki so'nggida stikerlarning qo'llanishi esa uzatilayotgan axborotning ta'sir etish doirasini kengaytiradi. Ma'lumotni masofadan turib qabul qilayotgan adresatga ham adresantning kayfiyatini yuqtiradi, oddiy ifodadan ko'ra unga qo'shimcha tarzda qo'llangan shakliy belgilari tinglovchi hissiyoti uchun pozitiv muhitni yaratib beradi yoki aksincha.



Og'zaki nutqda berilayotgan axborotning kulgi, kesatiq, kamsitish, maqtanish, piching ma'nolaridan birida ifodalanayotganini so'zlovchi ohangiga qarab ilg'ab olish mumkin. Yozma nutqda esa bunday ma'nolarni aks ettirish uchun stikerlar yordamga keladi. Jumladan:

Maqolam chop etishga tayyor 😊 .

Maqolam chop etishga tayyor 😊 .

Maqolam chop etishga tayyor 😬 .

Maqolam chop etishga tayyor 🤔 .

Maqolam chop etishga tayyor 😊 .

Xulosa o'rnilida aytish mumkinki, paralingvistik vositalar ham tilshunosligimiz uchun o'rganilayotgan va yangi qirralarining kashf etilishini kutayotgan muhim obyektlardan biri bo'la oladi. Negaki lingvistik birlklarga yondosh holda paralingvistik vositalar ham nutqiylari vaziyatni tashkil etuvchi asosiy omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арипова А. Нутк мөхиятини ташкил этувчи муҳим восита//Scientific progress journal. Volume 1, Issue 6.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019
3. Islomjonova X.I., Annazarova T. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga oid lingvopragmatik tahlil// XXI asr: fan va taъlim masalalari, 2018.
4. Mirzayeva D.I., Xolmatova Z.A. Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati// O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2022.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980.
7. Сайдхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 1993.
8. Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.
9. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва 1990.
10. Internet saytlari: <https://uz.wikipedia.org>, <http://taqvim.uz>.